

Kim zo'r

Yursa turli yo'l ekan,
Ertak juda mo'l ekan.
Otam aytgandi buni,
Siz ham eshiting uni:

— Ertagim ertak edi,
Eshagim yo'rtoq edi.
Yo'rg'a bilan bir safar,
Qarshiga qildik safar.
Qahraton qish chog'ida,
Ho', Qizbuvi tog'ida,
Burquttepa soyida,
Yax qoplagan joyida,
Bir muzga mingan edi,
Dumlari singan edi.

Bu holdan xunob bo'lib,
Ko'zlarim yoshga to'lib,
Nogoh tashvishga tushdim,
Savolga savol qo'shdim:


— Ey, Muz og'a, bu ne hol?
Senga shunday savol bor:



Kuch-qudrati ziyoda,
Eng zo'r senmi dunyoda?
— Kuch-qudrati ziyoda,
Eng zo'r bo'lsam dunyoda,
Ko'zlarimdan to'kib yosh,
Eritarmidi Quyosh?

—Quyosh og'a, bu ne hol?
Senga shunday bir savol:
Kuch-qudrati ziyoda,
Eng zo'r senmi dunyoda?
—Kuch-qudrati ziyoda,

Eng zo'r bo'lsam dunyoda,



Bulut qoplab yuzimni,
Berkitarmi ko'zimni?

—Bulut og'a, bu ne hol?
Senga shunday bir savol:
Kuch-qudrati ziyoda,


—Eng zo'r senmi dunyoda?

—Kuch-qudrati ziyoda,

—Eng zo'r bo'lsam dunyoda,

—Sharros urib tusharmi?

Yomg'ir bag'rim tesharmi?



—Yomg'ir og'a, bu ne hol?

Senga shunday bir savol:
Kuch-qudrati ziyoda,

Eng zo'r senmi dunyoda?

—Kuch-qudrati ziyoda,

—Eng zo'r bo'lsam dunyoda,


Bu Yer meni yutarmi?

—Umrin shunday o'tarmi?



—Ey, Yer og'a, bu ne hol?
Senga shunday bir savol:
Kuch-qudrati ziyoda,
Eng zo'r senmi dunyoda?
—Kuch-qudrati ziyoda,
—Eng zo'r bo'lsam dunyoda,
Maysa unib o'sarmi?
Yuzlarimni to'sarmi?

—Maysa og'a, bu ne hol?
Senga shunday bir savol:
Kuch-qudrati ziyoda,
—Eng zo'r senmi dunyoda?
—Kuch-qudrati ziyoda,
—Eng zo'r bo'lsam dunyoda,
Mollar payhon qilarmi?
Yurak-bag'rim tilarmi?



—Ey, mol og'a, bu ne hol?
Senga shunday bir savol:
Kuch-qudrati ziyoda,
Eng zo'r senmi dunyoda?
— Kuch-qudrati ziyoda,
Eng zo'r bo'lsam dunyoda,
Bo'ri tutib yermidi?
Birov rahmat dermidi?
Bo'ri dedi: — Barcha ayb,
Meni quvgan merganda.
Mergan aybin shu onda

Oshirvordi sichqonga.
Sichqon esa mushukka,
Mushuk bo'lsa paykalga.
Paykal aybni boshoqqa
Boshoq esa o'roqqa.

O'roq xirmonga dedi:

— Xirmon og'a, bu ne hol?

Senga shunday bir savol:

Kuch-qudrati ziyoda,

Eng zo'r senmi dunyoda?

—Kuch-qudrati ziyoda,

—Eng zo'r bo'lsam dunyoda,

—Chumoli op ketarmi?

Donni gumdon etarmi?

—Ey chumoli, bu ne hol?

Senga shunday bir savol:

Kuch-qudrati ziyoda,

—Eng zo'r senmi dunyoda?

—Tinglab turdim, ey Odam,

Savol berding dam-badam.

Eshit meni so'zimni,

Bildirayin o'zimni.

Deding: eng zo'r senmi, sen?

—Ha, zo'r o'sha men, men!

—Otangni oltmish botmon,

Pochchangni yetmish
botmon,

—Og'angni sakson botmon,

—Tog'angni to'qson botmon,

—Momongni yuz-yuz
botmon,

—Bobongni besh yuz
botmon,

—Rizq-u ro'zi — nonini,

—Asrab qo'ygan donini,

—Kecha-yu kunduz tinmay,

—Sabot bilan erinmay,

To'qqiz tog'dan oshirib,

—O'ttiz bog'dan oshirib,
Bitta-bittalab yiqqan,
—Tashib uyiga tiqqan.
—Siz bilmagan qahramon,
—Murg'ak mitti pahlavon,
—O'sha o'r Chumoliman,
—O'sha zo'r Chumoliman!
Garchi kichik savlatim,
—Mehnatim — zo'r
davlatim.
—G'iybatdan begonaman,
—Mehnat desa yonaman.
—Bor-u yo'g'im ham mehnat,
—Och-u to'qim ham mehnat.
—Mehnatim — toj-u taxtim,
Mehnatim — umid, baxtim.
Shu bois yagonaman,
—Ertagu afsonaman.
Bilsang, zoti oliyman,
Mehnatkash Chumoliman.

